

8d1
£-80

NAJMIDDIN ERMATOV

BO'ZLA ENDI, BO'ZTO'RG'AY



• BIRINCHI  KITOBIM •

SHE'RLAR

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предельных
выдач _____

--	--

841
2-80

- 1423 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

NAJMIDDIN ERMATOV

BO'ZLA ENDI,
BO'ZTO'RG'AY

She'rlar

Nashr uchun mas'ul:
Nodir JONUZOO.

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushma raisining ijodiy ishlar
bo'yicha birinchi o'rinbosari*

Mas'ul muharrirlar:
Nurbay JABBOROV, Mansur JUMAYEV

Yosh ijodkor Najmiddin Ermatovning she'rlarida el dardini ko'rasiz, o'zligini izlayotgan, kamolotga talpinayotgan, umunning g'amini o'z g'amini deb biluvchi, qalbi beorom tepib turgan sergak inson qiyofasini ko'rasiz. Bunda tizginsiz yosh yurakning baravi va sarkash, toza va beg'ubor telbaliklari bor. Bunda dunyo dargohida yashab kelayotgan nuroniy millatning eski anduhlari bor. Bunda erklik dasturxonidan tuz totib ulg'ayotgan navqiron avlodning ko'ngli kengliklarida pindiq otgan erka umidlari bor. Ozod va ozoda qalb tug'yonlari chekilgan ushbu mo'jaz to'plam bilan she'r muhbirini qutlashga haqlimiz.

*Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib,
"Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6780-1-9

© N. Ermatov, 2020
© "Adabiyot", 2020

YOMG'IRLAR "DEVONA" LIGIN ISTAB...

Ijod g'alayoni ko'ngliga tinchlik bermayotgan yosh shoirlardan biri Najmiddin Ermatovning she'riy satrlarida odam o'z ruhiyati manzaralarini ko'radi. Teran nigoh, chuqur hissiy kechinmalar inoyat etilgan katta qalb egasi – shoirgina o'z "men"i yo'llaridan barcha yuraklarga yo'l topadi. Uning iztirob-armonlari, hissiyot-xulosalari ko'plab qalblarda aks-sado beradi. She'riyat – ruhiy kechinmalar va sof insoniy tuyg'ular ifodasi.

O'zining aytar so'zini topgan, uni boshqalarga ilnayotgan Najmiddinning:

Ohular ko'zidan anduhiy boda

Ho'plagan shamollar esidan judo.

Es, bu – qolganlarga o'xshamak bo'lsa,

Yomg'irlar devona, men-da devona,

– kabi satrlari she'rxoni o'yga soladi. Chindan ham, anduh bodalarini ichganda o'zishundog ham sarkash shamolni esdan og'dirish faqat shoirning qo'llidan keladi. Faqat ana shu kechinmalarni so'zlar qatiga bir pokiza, bir ajib sarxushlik bilan jo etadi. Shoirgina

tuyg'ular devonasi, shoirgina yurak qatidagi
izhorlarni ochmoqqa satrlar aro yo'l topadi.

Najmiddin Ermatovning pokiza hislarga
yo'g'rilgan she'rlarida muhabbat harorati
ufuradi:

*Bir kuz keldi baridan keyin,
Ketmog'i dushvordir, ketmog'i qiyin.
Shu qiz deya yashab umrbod,
Shu kuz ila o'tmog'im tayin.*

Shoir kuz timsolida o'z holiga ishora qila
turib, sevgida sadoqati, bahoriy hislarga osh-
noligi, ularni hamisha xotir qatlarida saqla-
shini bildiradi.

Yosh shoirning she'rlarini o'qib, uning o'zi-
gagina xos topilmalariga guvoh bo'lasiz.

Najmiddin Ermatovga ijodiy barkamollik
va yaxshi tilaklar tilaymiz. Ijod yo'li nuraf-
shon bo'lsin.

Nurbay JABBOROV,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
adabiyotshunos olim.*

O'tiz qush qonimini bo'zaday ichdi,
Ohular ko'ziga sig'madi umrim.
Mening osmonimda uchmagan hurmi
Bir tunda alafar poyida ko'rdim,
Bo'zla endi, bo'zto'rg'ay.

Kattimning chizig'in taladi yo'llar,
Pillaqurt kasbidan bermadi ulgu.
Qopqonda chorasiz yo'tgan qashqirday,
Bo'g'zimni yirtguday uvilladim "u-u-u-uv",
Bo'zla endi, bo'zto'rg'ay.

Kechalar ojizman, kechalar – xunbor,
Kuzduzlar kiftimga qo'nmagan baxtqush.
Har oqshom bo'g'zimda uyalasa mung,
Har sahar ko'zimdan sachrab ketar tush,
Bo'zla endi, bo'zto'rg'ay.

Bulbul sayrog'ida visolga umid,
Kuygan ko'kayimga botmoqda tig'day.
Ertamni ko'rmakka ochilgan o'shal
Ko'zim kosasida uzataman may,
Bo'zla o'zing, bo'zto'rg'ay.

Oldinda nima bor – ilon yutgan yo'l,
Imkon yo'q, qaytib ham bo'lmaydi izga.
Anduhga chayilgan uzu-u-un umrda
O'luv bittaligi kam bo'ldi bizga,
Bo'zla endi, bo'zto'rg'ay.

Har lahza – kosaday azobga to'la,
Tushun, qismat bo'ldi simirmoq jabri.
Butun hayotini shunday kuydirib,
Bo'zlab o'tar odam aytayapti:
Bo'zlagin-ay, bo'zto'rg'ay.



Kelma!
Sog'inchni o'ldirar sening tashrifing,
Diydorga to'yishdan qo'rqaman, kelma.

Kelma!
Hironing ovchisi bo'lgan visolga
O'ljasin berishdan qo'rqaman, kelma.

Kelma!
Tug'ilmagan she'rlar tug'ilsin hali,
Uvolga qolishdan qo'rqaman, kelma.

Kelma!
Bir olam baxt bilan kelarsan, kelsang,
Men baxtli bo'lishdan qo'rqaman, kelma.

Kelma!
Mana shu dard bilan, gulim, tirikman,
Davodan o'lishdan qo'rqaman, kelma.

Tun.
Yomg'ir.
Qorishiq ifor.
Uchqur xayol, qadamlar asta.
Borliqqa sochilib keladi ketging,
Yomg'ir bo'lsam kerak, aslida.

Sen yo'qsan.
Hech kim yo'q.
Nimalardir bor.
Nenidir tuyarsan yomg'ir ostida.
Men, axir, osmonda yashaganman-ku,
Ne qilib yuribman zamin ustida?

Shayton.
Ta'qiq.
Va o'sha meva –
Afsus bor quvg'indi odam naslida.
Negadir ularga alogam yo'qdek,
Yomg'ir bo'lsam kerak, aslida.

Ko'nglimni so'raysan,
Ha, ko'nglim bordir –
Dunyoni sig'dirgan,
Seni sig'dirgan,
Boshdan-oyoqqacha bus-butun yurak.
Mening topinganim o'sha-ku, axir,
Endi bu dunyolar menga ne kerak?

Ishqimni so'raysan,
Ha, ishqim bordir –
Huv, o'sha odamga
Jon kirar mahal
Chalingan musiqadan ajralgan navo.
Men uning sehiri-la yana qaytadan
Yaratib olgayman boshqa bir dunyo.

Faqat so'ramaysan,
So'ray olmayсан,
Mening yana bitta azobim bordir –
Yaratgan yaratgan, ey, tengsiz dildor,
Hijronga evrilgan umr yo'limda –
Mening sen sig'magan peshonam ham bor.

* * *

Bo'y qiz tushlariday sirli, safoli,
Bola o'ylariday sarhadi fuzun,
(Bizlarni ayirgan osmon ortida)
Ikkimiz bir bo'lib ketmoqlik uchun
Bir makon bo'lsa.

Ortiq qiynamasa tuftrog'lig' yulki,
Gillar haq so'rmasa so'nggi dam tandan
Bul qo'noq dahrdan oyoqni uzsak,
Kahkashon bir yoni tutashsa yerga
va narvon bo'lsa.

Bizsizlik vahmidan qo'zg'alsa zamin,
Chaqmog'-u bo'ronlar to'ssa gar yo'lni,
Ketishga shaxtlansak, faqat ketishga,
Boshni yo'qotsak-da, yo'qotsak o'zni,
Dil omon bo'lsa.

Kulsalar: bularning yo'llari xato,
Desalar: taqdirga ayri bu qilmish.
Yuzini o'girsar dunyo sarosar,
Faqat Ishq, faqat Ishq, faqat Ishq
Biz tomon bo'lsa.

Tiriklik qiymati butkul o'zgarsa,
Isrofil kuylasa visolning vasfin.
Ikkimiz ko'z yoshday birlashi-i-i-ib ketsak,
Chaqaloq qabriday jannatga yaqin,
Tinch orom bo'lsa.

Ikkimiz bir bo'lib ketmoqlik uchun
Bir makon bo'lsa.

SO'ROV

Hayronman, kim kimga otayapti o'q,
Na o'qni to'xtatdim, na bo'ldim qalqon.
Kecha okopidan chiqmagan askar
Bugun tirikman deb bo'lsa qahramon...

Hayronman, ne uchun Haq demas tilim
Yoki o'chirdimmi dildagi cho'g'ni?
Nega ko'hayapman haqsizlikka jim,
Menga bir qaranglar, o'lganim yo'qmi?

Sen yoqtirgan yomg'irlar yog'di,
Oynaga urildi vido shitiri.
Uyasi buzilgan qushday ruhimni
Ololmadim uyga kiritib.

Bosgan izlarimiz ko'lmakka do'ndi,
Oqcharloq misoli uchdi nigohim.
Yo ajab, ko'lmakdan nilufar emas,
Baqalar chiqardi boshini, mohim.

To'r tashlab o'tirdim baliqchi cholday,
Bisotimda qolgan xo'ragim jondir.
Tilla baliqni mas, duridan ayri
Tutib qaytayapman chig'anoqlarni.

Horg'in odimlayman cho'loq turnaday,
Ezilib yog'moqda ezg'inlash yomg'ir.
Teshik tovog'iga tikilib uyda,
Umidvor kutadir qarimsiq kampir.

Bu kampir o'lmadi, tinchitmas meni,
Boriga ko'nmagan bu kampir – visol.
Gar tirik bo'lsa u,
Ushbu dunyoda
Mening ham tirikday yurmog'im mahol.

Uyga kirib keldim, yana g'alayon,
Ko'chaga itqitar itdayin xo'r lab.
Yo tanga kishanla, chiqarma meni,
Yo ruhim ol, mana, ey sen, ruhtalab.

Bunday yashamoqqa majol qolmadi,
Yo kuch ber, yoki bu yuragim tinsin.
Kelgin, kutayapman, agar kelmasang,
Sen yoqtirgan yomg'ir yog'masini!

Sen yoqtirgan yomg'irlar yog'di...



Sentyabr tig' urdi avgust ortidan,
Yaproqlarga sachrab ketdi qon.
Holsizlangan quyoshni sudrab
Ketib borar edi saraton.

Kuyib kuyilar edi xotima kuyin
Atirgul shoxidan ketolmagan qush.
Navodek havoga ketolmam singib,
U yog'i xayol va u tomoni tush.

Qayta kelaverar armonlar yodga,
O'tmishga intilib tasavvur halak.
Tiyramonh tig'iga urar o'zini
Saraton qoniga belangan yurak.



Surnayning bo'g'ziga kishanlangan sas,
Vido fursatida simrilgan nafas,
Tashqarida visol, tashqari qafas,
Ayrilicning ming yillik ehromi ichindamiz.

Gul parini yutgan uch bosh ajdaho,
Bahodirin kutgan ul ko'zi shahlo,
Tashqarida dunyo – tashqari ro'yo,
Ro'yolig'ning unutilig' dostoni ichindamiz.

Quvg'inlig' nahrida cho'milgan anduh,
Sanduloch tomog'in makon qilgan ruh,
Duldulning yolida uyalagan "chuh"
Bu dunyoning chindan-chin yolg'oni ichindamiz.

"Sevaman" so'zidan titragan havo,
Havo titrog'idan yaralgan navo,
Biz o'sha lahzada qolib ketib, o,
Asrlardan barhayot bir oni ichindamiz.

Ro'yolig'ning unutilig' dostoni ichindamiz.

Hijron shomiga kirdim,
tonglarim, xush qol endi,
Shabixun nayzalarga
umrim giriftor endi,
Ko'zim, mendan ranjima,
ko'rmasam bahor endi,
Sabuhiy tug'yonlardan
judo bo'lgan yo'ldamiz.

Ko'rganimiz nur emas,
bizdan kakkashon baland,
Ul somon sochig'idan
tiklangan narvon baland,
Hali jism langarim,
hali bu osmon baland,
Yetim qovurg'a yanglig'
tanho bo'lgan yo'ldamiz.

Bunda faqat boyqushlar
ko'zida mung tashiydi,
Bunda faqat alafar
hasratini taniydi.
Bunda faqat ashk yog'ar -
anduhimdan chayindi,
O'ssa, faryod o'stirib,
ado bo'lgan yo'ldamiz.

Bir umr va bitta Ishq,
faqat visol oz bo'ldi,
Ko'rar kunim boyqushning
ko'zlariga mos bo'ldi,
Netay endi, qismatim
shu yo'llarga xos bo'ldi,
Atodan meroslig' ul
xato bo'lgan yo'ldamiz.

Ketib borayotir havoda masrur
Sening lablaringdan uchgan xirgoyi.
Baxt menga xirgoyi bo'lib ko'rindi,
Axir, baxt edi-da u uchgan joyi.

Ketib borayotir havoda dilxun,
Qayerga ketyapir, qay xush bilamaydi.
Dard menga xirgoyi bo'lib ko'rindi,
Axir, lablaringdan uchgan xirgoyi.



Xazonlar tovlanagan kunbotar vaqti
Shu g'amnok vatanning kuzgi bog'ida,
Quloching keng yoyib,
(Qizni quchganday)
Bu bir kam dunyoning mangu ohini
Qu-u-u-chsang.

Ayrtiq kuyini chalsa tiyramoh,
Musicha ko'ziga mung chizib kelsa,
Ko'rgan hayotingga tupurib shu chog',
Aqldan ozsang...

Shamolning tilinda qo'shiq boshlasang,
Diriyor daraxtlar silkitsa qo'lim,
Eshilgan tanangga bag'rini bosib,
O'ynasa o'lim.

So'nggi tilovingga yetmoq istasang,
Intiho tilansang mana shu kuzday,
O'lim ham tilaging rad etib kettsa
Bevafo qizday.

Qushlarsiz uyadan pat yig'sang keyin,
Kuraging tilgancha birma-bir eksang,
Xazonlar ustida yuztuban yotib,
O'sishin kutsang.

Ishonsang,

Hech yo'qsa, tush ko'rsang shunda,
Sendan tushovini yechsa bu hayot,
Jisimingni kiyimday yechib tashlasang,
Kuragingdan chiqsa bir ulkan qanot,
Ke-e-etsang.

Tortishish kuchini yengdim, Nuriro'y,
Havoga ko'chgapman "OH"ga osilib.
Bus-butun dil edim,
butunlik malol,
Havoga evrildim, ketdim sochilib.

Endi men yo'qdirman, meni o'ylama,
Endi men har joyda - dilgingang sezsa,
Intigman, yig'ib ol meni, sevgilim,
Yoki haydab yubor, qo'lingdan kelsa.

Men tongman!
Derazangni nihoyat topdim
so'ngra yotog'ingga yutoqib kirib
qo'qqis ko'taraman oppoq bayroqni,
taslimman.

Sening ruxsoringni ming yil axtarib
yana ming yil senga fido bo'lmoq-chun
men keldim,
uyg'on,
uyg'onsang-chi, bo'l,
sabr-dan to'ymoqda ming yillik yo'qlov,
uyg'on...
Nihoyat uyg'onding, yuzingni
silar edi sabuhiy nurlar –
quyosh deb o'ylaysan
so'ngra sevib qolasan uni,
men esa tongman.

Bir qiz keldi xayoldan chiqib,
To'rt tomonim misli ko'k edi.
Osmonglarga ketdim yiqilib,
Turmog'imga imkon yo'q edi.

Bir his keldi dilga to'kilib,
Kema yanglig' chayqaldi tanim,
Go'yo shu dam ketdim tirilib,
Ro'yo ekan yashayotganim.

Bir so'z keldi kelmagandayin,
U qiz kutdi, men ichga yutdim.
Fagat ishqni o'yladim, yo Rab,
Ul suluvi butkul unutdim.

Bir kuz keldi baridan keyin,
Ketmog'i dushvordir, ketmog'i qiyin.
Shu qiz deya yashab umrbod,
Shu kuz ila o'tmog'im tayin.

* * *

Kuz bog'larga olov yoqibdi,
G'ussasida isinaylik, yur.
Qovjirashin kuzatib bargning,
Og'rig'idan qilaylik huzur.

Tashlab chiqin kulgularingni,
Iztirobdan ne bor boqiyroq?
Bir joningni bo'lak-bo'laklab,
Dard beraman senga ming quchoq.

Titrayotgan xasning, xazonning
Tushlariga kirar bahorlar.
Tunda gullar so'lganin ko'rib,
Aza ochib otar nahorlar.

Daraxtlarda janubga qarab,
Ko'z yumolmay yotibdi inlar –
Lahzalardan asrab, qushlarning
Tashlab ketgan chug'urin tinglab.

So'lgan gulning tagiga qara,
Bulbul yodin ko'myapti shamol.
Yig'layapti, axir, sevgilim,
Bizlar kulsak, bo'lmasmi malol?

Xazonlarni chertib yomg'irning
Chalayotgan xonishiga boq.
Baxt-la emas, gulro'y, dard ila,
Qanday shirin ishqni o'ylamoq.

Gar ko'masang, ranjimaيمان, bor,
O'zingnimas, ishqni baxsh etgin.
Yoningdamas, sendan olisda
Seni qo'msab yashayin, ketgin.



Bu g'arib dahrdah uchrashsak yana,
Yo'llaring oxiri chopsa ko'zima,
Ashklaring nahridan kechib o'tmasam,
O'ksima.

Darz ketgan kosada may ichib tursam,
Sanasang, qovurg'am biri bo'lsa kam.
Qarasang, jismimda kam bo'lsam men ham,
Ichikma.

Ko'zlarim kadardan kiyinsa kafan,
Puflasang, qagruslar chiqmasa kuldah,
Kuyuk ko'kayima kuldah qidirib,
Kuyunma.

Qushlarsiz uyaday ezg'inlik hokim
Umrima sochsa gar umidlar xokin,
Qayta butlamogga haddimiz sig'mas,
Yig'inma.

Ikkinimiz bir dunda ikki yon ketsak,
Qismat kishanida gar tanho ketsak,
Jonahg omon bo'lsin, faqat bu jonga
Ko'nikma.

Jonahg omon bo'lgur, mensiz bu jonga
Ko'nikma...

Sen kelmagah uyga sig'masdan
Tentisam, bo'zlasam visoling tilah,
Bizlar birga yurgah yo'llardan
Izlaringni tersam bitalah.

So'ngra qaytsam yana shu uyga,
Izlaringni qo'ygani ekib.
Kunduzlar boshida parvona bo'lsam,
Tunlari sug'orsam tinmay yosh to'kib.

Sen kelmagah uyda har kun zax tortib,
Sog'insam, o'tinsam bilmasdan tinim,
Bahor kelganida usbu izlardan
O'sib chiqasami, sevgilim?



1.
Ko'rasan,
ko'kish badanini osmonga ochib,
zulmatda cho'zilib yotibdi ko'cha.
Sezasan,
Panjasini sovuq urgan qashqirday
ingranib, imillab odimlar kecha.

2.
Bo'shaldi,
tushovini sudragancha boradi xayol,
ko'chadan uyaliib, kechadan cho'chib.
Ko'radi,
Ul tanish deraza, yotibdi suluvi,
begona suvratni bag'riga bosib.

Biladi,
bu gapni bo'lmaydi o'zingga aytib,
adashgan it kabi ketadi daydib.
Bilmaysan,
kutasan tong otar, lekin-chi endi,
ul xayol hech qachon kelmaydi qaytib.

3.
Ko'rmaysan,
ko'kish badanini osmonga ochib,
zulmatda cho'zilib yotar kan ko'cha.
Sezmaysan,
panjasini sovuq urgan qashqirday
iskanib, irganib ketarkan kecha.

4.
Sevasan.

dunyo -
oxiriga yetmagan chiziq
nar yog'i yo'qchilik
ammo unda yurardi ajab
bir qalbi sinig
yig'lardi tinmay
shoir edi u
she'r yozar edi
chiziqning davomi haqida.

QON VA SIYOH

Qon:

– Paq etdi, otildi o'q.
Haq, degan ul o'g'lonning
teshilgan ko'krigidan
bo'y cho'zdim gul misoli.

Siyoh:

– Paq etdi, otildi o'q.
Zirhlangan qo'nalg'ada
qondan qo'rqgan qo'lni va
ko'rdim qog'oz visolin.

Qon:

– Avlodim, egilmagin,
boshingni tik tut, deya
jondan kechgan o'g'lonning
isyon to'la ko'ksidan
Vatan deya to'kildim.

Siyoh:

– Kelajakka ketdi noma:
"Bosh egmadi isyonchi,
Xoin edi, otildi".
Yillar o'tib avlodning
Boshin egib o'qiydi.

Qon:

– Vatan deya to'kildim.

Siyoh:

– Xoin deya o'qilgay.

Kelgin, qismatimiz kelishdir asli,
Ikkimiz bir hisga bo'laylik asir.
Hadikni qo'y endi, ey Havvo nashi,
Men ta'qiq mevasi emasman, axir.

U qizda ishqim bor, ko'nglimda u qiz,
Ey Xudo, bu yuking bunchalar og'ir?
Kundan-kun ketyapman osmonga cho'kib,
Men Nuhning kemasi emasman, axir.



Taqvo yo'llarinda majnuntol egik,
Teraklar keltaygan azaliy kofir.
Ularni undagan ushbu zaminda
Yomg'irlar muhojir, men-da muhojir.

Toklarning shoxida to'nglagan yoshi,
Behishtda danagin qoldirgan anjir.
Bizni taroshlagan noraso dunyo,
Yomg'irlar xabarchi, men-da xabarchi.

Ohular ko'zidan anduhiy boda
Ho'plagan shamollar esidan judo.
Es bu qolganlarga o'xshamak bo'lsa,
Yomg'irlar devona, men-da devona.

Qo'rg'oshin tusdagi yoshni simirgan
Tumanlar zaminining cho'ntak ro'moli.
Uning bir kamiga davo qidirgan
Yomg'irlar sazoyi, men-da sazoyi.

Haqush uyasiga tuxumin qo'yib,
Kakkular ming yilki jo'ja ochirgan.
Bul mudhish sirlarning guvohi bo'lib,
Yomg'irlar osilgan, men-da osilgan.

Anov yog'ayotgan yomg'irmas, ko'zyosh,
Anov ketayotgan men emas, anduh.
Odam siyog'iga do'holmay azal,
Parlanib ketmoqda tanamdagi ruh.

Qanoti sinig'ku, ucholmas bulbul,
Tillari kesilgan, tumshug'ida zang.
Sendan kattalarning hadigi sabab,
Sening zamoningdan quvilgan ohang.

Dilginang hapqirar hayajon yutib,
Sezasan nimadir chekishin nola.
Timmay entkasan mo'jiza kutib,
Qafasning sayrashin kutyotgan bola.



Yomg'irni kuzatmoq kerak:
ayvon chetidagi ustunga ilib,
mato yopib qo'yilgan
qafas ichidagi bedana bo'lib.

Kengliklarga ko'z tikmoq kerak,
ketishni istash kerak undan-da nari:
ovchi qopqonida
so'nggi nafasini olayotgan bo'ri singari.

Bahorni sog'inmoq kerak:
jonidan o'tkancha qahraton qahri
oxirgi kuchini sarf etganicha
don izlayotgan musicha kabi.

Sevmog kerak o'sha suluvni –
dardsizlikdan davolanib
o'liming kabi xuddi
rad etilishing bo'yiningga olib.

HIRON HAQIDA QO'SHIQ

– O'rgimchak to'riga ilingan shu'la,
Nelarni o'ylading kunbotar payti?
– Agar ki fursating bir umr bo'lsa,
Kutganing hech qachon kelmaydi qaytib.

– Qara, ufq qizardi, nihoya yaqin,
O'rgimchak yutmasdan ko'zlarimga qo'n.
– Mening umrim bitta, asralmoq ne naf,
Axir tongga qadar ming umrlik yo'l?

– O'rgimchak to'riga ilinmoq nechun,
Yursang bo'limasmidi ul shamsni quchib?
– Qismatin shu ekan, axir quyoshni
Topganim bilmasdim aytilmay turib.

– Mana sham yogyapman oqshomdan aval,
Mening ham hijronim hijroningga teng.
– Agar tongga qadar fursating bo'lsa,
Kechada yashamoq azobini yeng.

– Visol tong bo'lsa gar, qismatimiz bir,
Umrimdan kechalar ko'tarmaydi bosh.
– Bundan ham dahshati – shu tunda o'lsam,
Mening kutganinni bilmaydi quyosh.

O'rgimchak to'riga ilindi shu'la...

Gullar gulligini unutsa agar,
Ne uchun o'sishin bilmasa daraxt,
Osmonda qo'lyetmas yulduzga boqib,
– Mana shu baxt desa,
Mana shudir baxt.

Sen-chi, maysa bo'lsang ushbu o'rmonda,
Shamollar shiviri tuyulsa sirday,
Miyangda ming savol uyg'onsa g'ujg'on,
Tag'in o'saversang kimliging bilmay.

Gullarning xiromi soxta tuyulsa,
Daraxtlar qulochi omonat go'yo.
Shabada eltguvchi hidga to'yinsa,
Bu yashash yashashga o'xsharmi, dunyo?

Sen-chi, bu holatga javob topmasang,
O'ylasang:
– Bu o'rmon nimaga jimdir?!
Axir, bu holatni kimdir yaratgan,
Axir, bu holatni biladi kimdir.

Savollar javobi kimgadir ma'lum,
Kimdir yashayapti chiqarolmay sas –
Sening kimligingni biladi bulbul,
O'zining kimligin biladi qafas.

Chalqancha yiqilgan mag'lub polvonday,
tun zaminga yiqilib tushib,
yulduz sanab yotibdi endi.

Zindonga qulagan Alpomish misol,
dilga hijron quladi-qoldi,
najot tilab yotibdi endi.

Tun bilan dardi bir, davosi bo'lak:
kecha ko'p totmaydi yerning ta'mini,
turg'izib yuborar saharlar uni.

Dunyodan keng zindon tubida,
hijron-chi,
hijron-chi,
najot kutadi.
Boychibordan darak yo'q hali,
Kelganda ham dumi yetmaydi.

Barmoqlar qalamni quchar qatirab,
Ko'ngil tug'a boshlar, yig'laydi tuyg'u.
Aqlim faryod qilari: "To'xta, ey telba,
Sening xatlaringni o'qimaydi u".

Xonaga nur kirar oynadan sinib:
"Aqlingga qulqut tut, aytgani rost-ku.
O'qigan bo'lsa gar javob yozardi,
Sening xatlaringni o'qimagan u".

Oynaga urilar oqshom shamoli
Bilgan sirlarini olamga sochib:
"Men aniq bilaman, to'xta, ey ko'ngil,
U sening xatlaring ko'rmaydi ochib".

Dilga g'ashlik cho'kar, zaminga oqshom,
Kecha so'zlay boshlar dilga otib o'q:
"Xatlaring o'qimoq u yoqda tursin,
Hattoki, u seni o'ylagani yo'q".

Oppoq qog'ozlarning bag'ri dog' yana,
Oppoq qog'ozlarda faryodlar lim-lim.
Eng so'nggi umidim to'kilmay turib,
"Ularning so'zlari yolg'on" de, gulim.

Ko'ngil bu kechada o'zidan kechar,
Bu so'nggi xotima, bo'lmas boshqa payt.
Men senga sevimim aytaman endi,
Sen menga "Xatingiz o'qiyman" deb ayt.

Qovog'ingga kimdir don sepgan,
Kiprigingga qushlar qo'nibdi.
Dil yedirib boqdingmi, gulim,
Bo'ldi, uchir...
ular to'yibdi.

O'zing tusal, axir dilingni
tutaversang, qushlar ketmaydi.
Seni yolg'iz bu og'riqlardan
qutqarishga kuchim yetmaydi.



Derazadan termular titrab,
Yong'irlardan shalabbo kecha.
Javdirab qaraydi xonaga, ammo
Kirolmaydi chiroqdan cho'chib.

Men-chi, yetolmayman uyquga tomon,
Har kecha ming azob kechib boraman.
Sog'inch bu tugundir, mutolaa – yechim,
Har kecha ming tugun yechib boraman.

Na kitob yopilar, na yong'ir tinar,
Kecha tentiraydi ust-boshi ivib.
Sahar yaqin,
So'nggi varaqda
Kipriklarim borar ilinib.

Va nihoyat chirog'im o'chdi,
Sog'inch ko'char tushga o'ksinib.
Kecha kirar xonamga asta,
Tong kelguncha olar isinib.

Maysalar o'pichin shudringga sotib,
Saharlar yotganda tushlarga botib,
Qorong'u kechan, molini haydab,
Otam ketar edi tongni uyg'otib.

Osmonda so'nardi yulduzlar bir-bir,
Hilol tun bag'riga qo'yar edi bosh.
Saharlab erimmay onam o't yoqqan,
Tandirdan erinib chiqardi quyosh.

qarsak bu
olqish emasdir balki
balki u isyondir yetgancha majol
minbardan uchgan so'zlarni
qo'ymasdan qo'nishiga
hurkushga urunishdir ehtimol.



Ey, archa, ming yildir ko'kaying ko'kday,
Kelgin, dard berayin umringdek uzun –
Tirilgin,
ketaylik sahrolar sari,
Tog'larni sog'inib yashamoq uchun.

Kel, burgut, pastga tush, qanotingdan kech,
Ko'ksingga botmasmi shunday tiniq kun?
Zindon ko'rsataman tubi qirq quloch,
Osmonga entikib yashamoq uchun.

Nega kelmagaysiz, bilimaysizmi yo,
Shunday yashayapti boshi egiklar.
Ularning qaddiga kuch bering, axir,
Yuksakdan boqmagay mungga tiriklar.

Ha, shunday yashadik, yashayotirmiz,
Nega qaramaysiz titragan tizga?
Ko'kayimiz kuyib yurgan bu zamon
Shuncha baxt og'irlik qilmasmi sizga?..

Ertamni ushqoqdek sochdim havoga,
Bir kun kabutarlar terib yer, axir.
Kecham tanga kabi tushib qolibdi,
Sichqonlar iniga sudrab ketgandir.

Ilgungga sig'dirdim ishqni va seni,
Ayriliq ham sig'di, hijron ham bunda.
Faqat o'zingga joy qolmadi, axir,
Ayt, endi yashayin qaysi bir kunda?

Yurpatolmaydi
bu kecha ham ayolni hech kim
na erl
va na boshqa tirik jon
konani tutadi iztirob isi
faqat ovtutadi tonggacha uni
qulog'iga berkitib
qo'shni uydan o'g'irlab chiqilgan go'dak yig'isi

Xalqqa va Xoliqqa ters bursam yo'lim,
Shayton nag'masiga tebransa qo'lim,
Zarracha bedorlik sezmasa ko'nglim,
Demakki, mudroqman, mudroqlik – o'lim,
Uyg'oting meni.

Shamolga moslanib tebransam agar,
Tag'in ash'or bitsam kundan-kun battar,
Demakki, ko'zim ko'r, quloqlarim kar,
Tosh qotgan ko'ksimga uring-da xanjar,
Yig'lating meni.

Men yurib ketyapman, yo'llar ortimda,
Esiz ketayotir dillar ortimda,
Ko'ksimda tosh o'ynar, tillar ortimda,
Men xato yo'ldaman, sizlar ham jim-da,
To'xtating meni.

Savil ketayotir bir umr shundoq,
Bu umr o'tkinchi, xotira uzooq,
Javobim ne bo'lar Haq so'ragan chog',
Butkul yengmasidan meni bu tuzooq
Uyg'oting meni,
Yig'lating meni,
To'xtating meni.

Sevgim bu yukimdir, sevganim – manzil.
Yuk ozadi, qo'ymaydi,
Hilronga hech to'ymaydi,
Bir umrga bo'ynimda,
Hech qutulib bo'lmaydi.
Yuksez axir manzilga
Ko'chib keta olmayman.

Sevgim zamin erur, sevganim – osmon.
Osmondadir ilgohim,
Osmondadir xayolim,
Osmondadir bu jonim,
Nelay, yerda hayotim.
U tortadi, qo'ymaydi,
Hechib keta olmayman.

Sevgim bu zindondir, sevganimdir erk.
Ishu ishq erur sog'inchim,
Ishu ishq erur o'tinchim,
Tubsiz dil zindondidan
Qutulmoqqa yo'q kuchim.
Tutqunlik umrimga teng,
Qochib keta olmayman.

Qor misoli kaftingga qo'ndim,
Kuyib ketdi kafting taftimdan.
Tisarilding, axir bilmasding
Qor cho'g' kabi yonishin, erkam.

Men yonardim,
Sen hayron eding,
Hadik ichra yumding ko'zingni.
Ko'z o'rgangan, yurilgan o'sha,
Yo'llar tomon burding yuzingni.

Sen ketyapsan, men-chi, yonyapman,
Ortingda qor – oppoq alanga.
Olding sovuq – yog'ayotir qor,
Ishonch bilan boqding o'shanga.

Ranjimagin yonarkan deya,
Ketavergin sen o'sha izdan.
Ranjimayman
Dunyoning sovuq
Qorlariga ko'nikkan qizdan.

2017-yil 6-oktyabr kuni Rossiyaning
Vladimir viloyatida ro'y bergan avtohalokat
oqibatida halok bo'lgan yurtdoshlarim
xotirasiga bag'ishlanadi.

Bo'vub borar ikkita to'shak
to'brantishdan to'xtagan beshik
yo'l qaraydi siniq deraza
hazingina g'iyqillar eshik

qabr atonga tadoriksiz uy
yolg'iz yong'oq,
tap-taqir hovli
tuman kabi cho'kib qolgan vaqt –
oyoqlari tushovli

sahardan to oqshomga qadar
tinglagancha shamol so'zini
bundan yolg'iz kampir yashaydi
yo'lga tikib nursiz ko'zini.

Yarim tunda
yarimlanyapman
yulduz sanayotgan ko'lining yonida.
Kel, Nurim-ey,
ruhima singgin.
Ko'ldan chiqib
baqalar asta
ko'zlarima sakray boshlaydi.
Kel, Nurim-ey,
ruhima singgin.
Mugovadek
ochib sochimni
peshonamni o'qiydi shamol.
Kel, Nurim-ey,
ruhima singgin.

Toshlar otib
bu ko'lga kimdir
chalgitmasdan yulduz sanashdan,
qolmasimdan yarimlab butkul,
ko'zlarima to'lmasdan baqa,
tugatmasdan o'qishni shamol,
kel, Nurim-ey,
ruhima singgin.

Halbi yana kelgaydir bahor,
Halbi yana gullar daraxtlar.
Halbi yana bulbullar to'kkan,
Ko'zyoshidan ungaydir baxtlar.

Halbi yana ma'sum kelinchak
Bo'yga borib aytar tushini.
Bu safar ham suvlar aytmaydi
Tushida yurgan ul yot kishini.

Halbi rashkdan uvlaydi bo'ri,
O'y qilmishin oshkor etsa dog'.
Halbi yana kofir xayollar
Hayotimga to'qiydi sirtmoq.

Halbi o'lgan ohu ko'zidan
Ilohrab ketar borliqqa chiroy.
Halbi yana qizday bokira –
Og'itmasdan oqa boshlar soy.

Halbi yana kutgan-kutmagan
Har jon uchun kelgaydir bahor.
Ammo buning bulardan xoli
Simyog' ochga nima daxli bor?

Tilkalab-tilkalab tonglar don sochdi,
Peshonangga qo'ndi qismat qushlari.
Yana begonaday tomosha qilding,
Yostig'ingga oqgan shaffof tushlarni.

Eshilib-eshilib ingrandi arqon,
Dordagi yostig'ing oq nurlar quchdi.
Yana begonaday tomosha qilding,
Parlanib-parlanib tushlaring uchdi.

Qoralab-qoralab cho'kdi-ya oqshom,
Boshing-a yana shu bolishga yetdi.
Suyulib-suyulib oqgan tushlardan
Yostiqdagi gullar ochilib ketdi.

Kuyinib-kuyinib yana ko'z ochding,
Yostiqda gul ungan, uza olmayсан.
Tush o'sha, gul o'sha – taniysan menman,
Menga begonaday termulolmayсан.

derlari;
bahorni sog'ingan urug'
kuta-kuta gullab ketadi,
o'zi aylanadi bahorga.

derlari;
yomg'irni sog'ingan daryo
kuta-kuta parlanib ketar,
o'zi evrilladi yomg'irga.

bilimam;
seni sog'inyotgan men,
kuta-kuta yashasam,
ne bo'ladi oxiri?..



Aslan yomg'ir edim.
Yo'lin sindirib,
nurmi tashna etdim yomg'ir bo'lmoqqa.
Sanduloch ko'zidan visol o'marib,
yog'moqqa shay bo'ldik, faqat yog'moqqa.

Zarafshon jismimiz kakhkashon ichra,
sochilgan somondan bir oshyon yasar,
yog'armiz,
Isrofil suridan keyin,
yog'moqqa arziri dunyo topilsa.



DARAXT O'KINCHI

Shoslarimdan tortib, oh, sovuq shamol,
Memnabram qo'ldayin siypadi tanim,
Kechir olgub ila tibildi bilol,
Mog'oh anglab qoldim yalang'ochligim.

Juda yaqin qoldi oq sochli yog'iy,
Men unga begona, u hirsiga tashna.
O, xanib, panoh ber, yashirgin meni,
Yalang'och holimda unga ko'rsatma.

Oq hadim, yet quchoq,
Uvada tanam..
Ilhizimdan o'rlar reza-reza ter,
Mina o'lganini asray olmadim,
O'zimni osayin, qo'yib yubor, yer.



* * *

Men qaytib ketyapman,
sovgotirdi qish,
Nidolar yog'dirib yerdan falakka.
Birgina yo'lto'rvam shu ko'nglim, xolos
Va unga solingan dardi harina.

Men qaytib ketyapman,
boychechak unmay,
Hali esmasidan hafif shabboda.
O'tgan kun xulvodir, kelar kun abas,
Shu xulyo ilinjdir endi dunyoda.

Men qaytib ketyapman,
nam nigoh ila,
Qonli qilich kabi havoni tilib,
Endi yo'qligimni sezishing uchun
Kurtaklar bo'g'ziga qo'yganча ilib.

Men qaytib ketyapman,
Dunyoning o'sha
Bitmay qolgan bir kam chizig'i sari.
Axir keluvchilar yo'lni kesishgan,
Menga qolgan yo'llar – ketishdir bari.

Men qaytib ketyapman,
qolmoq iloh,
Mag'lub hayrog'iday ketdi so'tilib.
Fanam – kum, ruhim-chi, shu siniq xum-
dan
Yo'kilib hayyapti, faqat to'kilib.

Men qaytib ketyapman,
faqat bir qo'tqay,
Ishon umidimga to'qiydi kafan.
Qayimog'ib yoningdan ketmoqlik emas,
Nani kutmoqligini bezarmildnsan?

Ufqqa qarab qushlar uchdi,
O'nggi kelmay tushlar uchdi,
To'kilganim uvol deya
Parlanib-o, yoshlar uchdi.
Bir men qoldim ucholmagan.

Visol mendan kechib ketdi,
Xulyo sari ko'chib ketdi,
Ko'zlarima tikkan o'sha
Chimildig'in yechib ketdi,
Bir men qoldim kecholmagan.

G'ussa keldi qo'lida to'r,
Kishan, tushov – yarog'i mo'l,
Chirqilladi olashaqshaq,
Qochib ketdi hattoki yo'l,
Bir men qoldim qocholmagan.

Na ildiz bor va na qanot,
Faqat dard bor, yo'qdir sabot,
Ahvolima bo'zlab-bo'zlab
Menda yashab o'tdi hayot,
Bir men qoldim yasholmagan.

Zardoh, shoxingga ilmagin mayoq,
harqashda inguhim yo'lsiz kun sayin.
Axtir tanog'ini go'shangga qilmay,
qatling'ochlar qaytdi qora xatdayin.

Qabulatoniga bo'yin egmagan isyon –
hoy-huchuk – bahorning qo'ldagi cho'g'.
Peshonamga tog'yon omochin tortdi,
Homon biror glyoh umolgani yo'q.

Quy qamar, ko'zonga urmagin xanjar,
hushidan masuvo qarshingdagi tan.
U bu quvg'indidir, udir bir bandi,
U arshin har etmas peshona vatan.

Kamalak, eglig'in, qilg'in tilovat,
Axtir kelmaydini hujron adog'i.
Avriligga nuqta, visolga maxzan,
Dehonda bormikin Sarandip tog'i?

Bevg'illim, umrimning poyoni bitdi,
qatling'och qatlinga olib keldi o'q.
U qisam, o'harman, boriging bildir,
Hali qora katni o'qiganim yo'q.

* * *

Jim keting.
Teginmang.
Qaramang, qo'ying,
Ko'ziga mung ekib qo'ygandir uyqu.
Qulochi keng-ku deb behad sevimnang,
Yig'i dovushiga o'ynayapti u.

Yig'layotgan o'zi,
O'ynagan o'zi,
Yig'latgan ham asli o'zining nasli.
G'amboda holiga taskin qidirib,
Yig'i-la kuylaydi hurlikning vasfin.

Achinmang ham endi,
Bori shu ekan,
Yig'i bilan yuvib bo'ldi osmonni.
O'zi-ku ko'niki mazlum holiga,
Ko'niktirmak istar endi jahonni.

Ajab,
G'amlariga mehr boylagan,
Ajib huzurdayin tuyilar qayg'u.
O'zi-ku ishonib, o'zgani avrab,
Yig'i dovushiga o'ynayapti u.

Leh umid boqydir,
Yorug' kunlar bor!
Amnu esganda kutilgan yellar,
Hayromman, erkin qanday taniydi,
Yig'i dovushiga o'rgangan ellar.

Baxtli bo'lmqlikka to'siq ko'p menda:
yo'l to'siq, dill to'siq, ko'z yosh hamda g'am,
ikki o'rim sochini yulib,
siyraklagan siyminbadan ham.

Yashamoqqa to'siq ko'p menda:
qo'llida tutgancha firoqning tig'in -
hayotim to'siqdir yashashga hatto.
O'limga-chi?
Birgina Xudo.



U bu taqchilayigandan chiqqan ortig'ing,
Tushib qolgan tilingni tiyish-chun beshak.
Yoraling qo'rg'uvni his etmoq uchun,
qonotning shunchaki husningga bezak.

Bavramoq? Nima u? Telbalar yo'li,
Anglamoq - axloqqa teskari g'oyat.
Tashim bu qonungga zid bo'lgan maskan,
Uchushga urinish - og'ir jinoyat.

Fosmondan chiqqandan shunday dedilar:
Yulastan tashqari - jinoyat butkul.
Faqat ichkarini haq yo'l deb bildi,
Endi hech jinoyat qilmaydi bulbul.

SHUNQOR CHORIYEVGA

Cheksiz koinotdan kichik joy olib,
Hamon suzayotir tebranna beshik.
Hamon quvg'indilar uxlaydi bunda,
Hamon ochilmadi yopilgan eshik.

Hamon anglamaydi qaydan kelganin,
Hamon qanot qoqmas dilda tuyg'ular.
Vazmin tebranishdan to'xtabon beshik,
Qattiq silkinmasa, uchmagay ular.

Uyg'onsin, anglasin, yig'lasin, bilsin –
Bu mudroq ular-chun abadiy qiynoq.
O'zi ham sezmасdan ko'z ochar bir kun,
Kech bo'lar,
Beshikda yotmagay uzoq.

Bo'ldi, tebranishni to'xtagin, zamin,
Yetar, allalashni bas qilgin, osmon.
Yopilgan eshikka borar yo'l topib,
Uyg'onishga axir haqlidir Inson.

Chopib ketdi tog'larga tomon,
Har tohida vahshiy bir chitroy.
Cho'qqilarning shamolgayida
Uyilashga guvoh bo'ldi oy.
Harning bo'g'iziga tiqladi hadik,
Cho'pon olguncha kovushin kiyib,
Uchta biya qulunlarini
Olmadi xavfdan ayirib.
Bo'rga chopdi dastu uzra ozod,
Qo'ng'iga bo'lib lunjlari, tishi.
Tong otarida qaytdi ortiga
Qatnashdagi bo'rining tushi.

MUNDARIJA

Nurboy Jabborov. Yomg'irlar "devona"lign istab.....3

kelma.....7

Tun.....8

"Ko'nglimni so'raysan.....9

"Bo'y qiz tushlariday sirli, safoli.....10

So'rov.....11

"Sen yotqirgan yomg'irlar yog'di.....12

"Sentyabr tig' urdi avgust ortidan.....14

"Surnayning bo'g'iziga kishanlangan sas.....15

"Hijron shomiga kirdim.....16

"Ketib borayapti havoda masrur.....17

"Xazonlar toylangan kunbotar vaqti.....18

"Tortishish kuchini yengdim, Nurto'y.....19

"Men tongman.....20

"Bir qiz keldi xayoldan chiqib.....21

"Kuz bog'larga olov yoqibdi.....22

"Bu g'arib dahdda uchrashsak yana.....24

"Sen kelmagani uyga sig'masdan.....25

"Ko'rasan.....26

"Duny-o'xiriga yetmagan chiziq.....27

Qon va Siyoh.....28

"Kelgin, qismatimiz kelishdir asli.....29

"Ta'qvo yo'llarinda majnuntol egik.....30

"Qanoti sinib-ku.....31

"Yomg'irni kuzatmoq kerak.....32

Hijron haqida qo'shiq.....33

"Gullar gulligini umtisa agar.....34

"Chalqancha yiqilgan mag'lub polvonday.....35

Barinlar qalamni qachar qaltirab..	36
Uzoq timgalakim don sepgan..	37
Donidan termilar tirab..	38
Har sah..	39
U archa, ming yildir ko'kayib ko'kday..	40
Eranni ushugdek sochdim havoga..	41
Yulduzlaydi..	41
Salqin va Xolqqa to'rs bursam yo'lim..	42
Sevgin bu yulimdir, sevganim - manzil..	43
Ular o'zini hattingga qo'ndim..	44
Donlar harar ikkita to'shak..	45
Yulduzlar..	46
Yulduz yulduz kelguydir bahor..	47
Ularlar tirilalar tonglar don sochdi..	48
Har bir..	49
Atam yung'it edim..	50
Har bir ikkinchi..	51
Don qaytib kelgubom..	52
Ular qaytib kelgubor uchdi..	54
Ular shaharlagimayog..	55
Ular..	56
Har bir..	58
Ular har bir..	59
Ular har bir..	60
Ular har bir..	61

- 1423 -

LIBERISTON RESPUBLIKASI
DITIRI VA DITIRI MAXSUS TALIF VAZIRLIGI
TASHKILAT VIL OVATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XENOFOT RESURS MARKAZI

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

E 80

E 80 **Ermatov, Najmiddin.**

Bo'zla endi, bo'zto'rg'ay [matn]: she'rlar /
N. Ermatov. – Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti,
2020. – 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

NAJMIDDIN ERMATOV

BO'ZLA ENDI, BO'ZTO'RG'AY

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhih: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.
☎ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90¹/₃₂

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №372.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ boshqaruvida chop etildi.

109200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ

DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

AXBOROT RESURS MARKAZI

1-FILIALI

2.145 dsm